

Sezgi buzilishlari

Sezish pasayishiga **gipesteziya**, yo'qolishiga **anesteziya**, kuchayishiga **giperesteziya** deb aytiladi. Og'riq sezmaslikka **analgeziya** deyiladi. Harorat sezgisi yo'qolishiga termianesteziya, pasayishiga **termogipesteziya** deyiladi. Turli ta'sirotlarni noadekvat qabul qilishga **dizesteziya** deyiladi. Masalan, bemor issiqni sovuqdek, sovuqni issiqdek qabul qiladi.

Stereognoz sezgisi yo'qolishiga **astereognoziya** deyiladi. Teri ustida chumoli o'rmalagandek, nina sanchgandek kabi sezgilar paydo bo'lishiga **paresteziya** deb aytiladi.

Sezgi tolalari zararlanishi uchun **og'riqlar** ham juda xos. Oddiy sanchilgan nina kuchli og'riqlarni yuzaga keltirsa va og'riq sohasi kengaya borib uzoqroq saqlansa, bu holatga **giperpatiya** deyiladi. Giperpatiya talamus zararlanisa va periferik nervlar jarohatida ko'p aniqlanadi. Kuydurguvchi xususiyatga ega o'ta kuchli og'riqlarga kauzalgiya deyiladi. Amputatsiya qilingan oyoq yoki qo'lda kuzatiladigan og'riqlarga **fantorn og'riqlar** deb aytiladi.

Manba: © Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi © www.asab.uz